

INGLIZ TILI O'QITISHDA LINGVISTIK KOMPETENSIYA ATAMASINING TARKIBIY QISMLARI TAVSIFI

Muminova Aychurek Murodali qizi

Namangan viloyati To'raqo'rg'on

tumani 24-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8388523>

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentli, termin, samaradorlik, sifat, kommunikatsiya.

Keyingi paytlarda ko'pgina sohalarga "Kompetensiya", "Kompetentli", "Kompetentlilik" va "Kompetensiyaviy yondashuv" tushunchalari kirib keldi va faol ommalashdi. Bu esa, ta'lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan o'zaro bog'liq. Ma'lumki, mazkur terminlar chet el mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ularga berilgan ta'riflarni quyidagicha tahlil qilamiz.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishcha, kompetensiya, kompetentlilik, murakkab va bir nechta fanlar bilan mushtarak bo'lgan terminlardir. Ushbu terminlarning mohiyati "samaradorlik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, tushunuvchanlik, natijalilik, uquvlilik, xossa, xususiyat, sifat, miqdor" kabi tushunchalar asosida tavsiflanadi.

O'rganilgan manbalar tahlillariga ko'ra, N. Xomskiy, V.Xutmaxer, R. Uayt, Dj. Raven, N.V. Kuz'mina, A.K. Markova, V.N. Kunisina, G.E. Beliskaya, L.I. Berestova, V.I. Baydenko, A.V. Xutorskoy, N.A. Grishanova va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlariga binoan, ta'lim tizimida kompetensiyali yondashuv uchta bosqichga ajratilgan. Birinchi bosqichda - (1960-70 y.y) "Kompetensiya", "Kompetentlilik" atamalarining farqini aniqlash, tillarni o'qitish nazariyasi esa, "Kommunikativ kompetensiya" negizida (Dell Hymes) til kompetensiyasiga oid tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanilgan. Xususan, D. Xayms orqali xorijiy tillarni o'qitish jarayonida "Kommunikativ kompetensiya" yaratildi. Uning fikricha, bu jarayon kommunikativ faoliyatni ifodalab, asosiy e'tibor o'quvchida kundalik hayotga oid ma'lumotlarni o'z nutqida ifoda qila olish kompetensiyasini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda - (1970-90 y.y) birorta xorijiy tilni egallash, boshqaruv, muloqotga o'rgatish jarayonlarida ijtimoiy kompetensiya va shaxsning kompetentliliigi vujudga keldi. 1984 yilda Dj.Raven (London) o'zining "Zamonaviy jamiyatda kompetentlilik" mavzusida tadqiqot yuritdi. Shuningdek, u 37 ta turli kompetensiyalarni ishlab chiqdi. Ushbu kompetensiyalardan "tayyorgarlik", "javobgarlik", "biror narsani qilishga qodir bo'lish", "o'ziga ishonish", "erkin fikrlash", "tanqidiy tafakkur" kabilar yirik planda Dj.Raven izdoshlari yosh olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylandi hamda o'rganildi. Uchinchi bosqichda - Yevropa kengashi tomonidan (1990 yil) stretegik, sosial, sosiolingvistik, til va o'quv-kognitiv kompetensiyalar ishlab chiqildi. So'ngra Rossiyalik bir qancha tadqiqotchilar (N.V.Kuz'min, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya, L.M.Mitino, L.A.Petrovskaya) turlicha kompetensiyalarni amaliyotga tatbiq qilishdi. Shuningdek, kompetensiyali yondashuv asosidagi ta'limning rivojlanishida, YuNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan bir qancha muhim kompetensiyalar o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini belgilab berdi.

1996 yil 27-30 mart kunlari Berneda o'tkazilgan simpoziumda, Yevropa kengashi tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish uchun asosiy kompetensiyalarni (key competences) aniqlash, samarali natijalarga erishishga imkon berishi muqarrar ekanligi alohida e'tirof etiladi. N.Xomskiy izdoshi V.Xutmaxerning (Walo Hutmacher) o'z ma'ruzasida "kompetensiya"ni

anglash, “nima ekanligini bilaman”dan ko‘ra “qanday qilishni bilaman” ma'nosiga yaqin mazmundagi fikrini simpozium ishtirokchilari bir ovozdan ma'qullashgan.

“Kompetensiya”ga psixologik adabiyotlarda:

1. Qandaydir masalani hal qilish yoki biror narsa qilish.
2. Sud psixiatriyasida esa, sud majlisida qatnashish mumkin bo‘lgan ruhiy holat yoki layoqat.
3. Til bo‘yicha tadqiqot va psixolingvistikada til qoidalari bo‘yicha tayanch va mavhum bilimni egallash kabi ta'riflar berilgan.

Til kompetensiyasi bo‘yicha o‘quvchilar Grafika va orfografiya Punktusiyasi va orfografiya qoidalarini o‘rganishni takomillashtirish, Fonetik kompetensiyaga oid tovushlarni gapda va yakka holda tinglaganda farqlay olish, kommunikativ vaziyatlarda gapning kommunikativ turlari (darak, so‘roq, buyruq gap)ga mos ravishda ritm va intonasiyadan to‘g‘ri foydalanish, til tovushlarini, gapirish kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga nutqda ishlatishni mashq qilish, Leksik kompetensiyaga tegishli mavzuga oid so‘zlarni oddiy matnda to‘g‘ri ishlata olish, so‘z tuzilishi (qo‘shma so‘zlar va affiksasiya), boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar (baynalminal so‘zlar) haqida ilk tushunchalarni rivojlantirish hamda grammatik kompetensiya bo‘yicha so‘z turkumlari, sintaksisning asosiy qoidalari, fe'lning hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon shakllari, aniq va majhul nisbat va boshqalarni o‘rganadilar.

Lingvistik kompetensiya nutqiy, til kompetensiyalardan iborat bo‘lib, N.Xomskiy tomonidan asos solingan. Uning fikricha, lingvistik kompetensiya – akustik tizim orqali tildagi jummalarni tushunish, grammatik jummalarni grammatika ishtirok etmagan jumlar bilan farqlashni hamda boshqa samarali lingvistik amallar bajarish tizimini o‘z ichiga oladi. Mazkur kompetensiyaning chet til o‘qitishdagi o‘rni xususida ko‘plab tadqiqotlar turli davrlarda turli A.A.Mirol'yubov, A.N. Shukin, V.V.Safanova, Ye.M. Vereshagin, V.G Kostomarova, D. Slobin, S. Muaran, S. Savin'on, L.F.Baxman, G.V. Kolshanskiy, Yan Van Ek kabi xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. 80-90 yillarda Rossiyalik A.L. Berdichevskiy chet tillarni o‘qitish uchun lingvistik, lingvomadaniy hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish lozim degan g‘oyani ilgari surdi. I.A.Zimnyaya lingvistik kompetensiya xususida batafsil izlanishlar olib bordi. I.L. Bim lingvistik kompetensiyani chet til o‘qitishga tadbiq qilishda sosiolingvistik aspektni kiritadi hamda matn o‘qish va yaratish xorijiy tilni egallash vositasi deb hisoblaydi.

References:

1. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch –T.: Ma'naviyat, 2008. -171 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvardagi bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisidagi “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimizdir”
3. Gabay T.V. Pedagogicheskaya psixologiya: Pedagogika i psixologiya: Uchebnoe posobie. – M.: Gardariki, 2003. – 480 s